

MAHMUD QOSHG'ARIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Mahammadjonova Gulchiroy Abdulhay qizi

Andijon Davlat chet tillari instituti talabasi

abdulhayaloviddinov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixan shakllanib kelgan pedagogika, sharq uyg‘onish davridagi pedagogik qarashlar hamda Mahmud Qoshg‘ariyning pedagogik qarashlari yoritib beriladi.

Tayanch so‘zlar: tarbiya, pedagogika, tarixiy pedagogika, “Odob as-solihiyn” odob zohirlari bayoni, “Odob ma’naviy bayoni”, “Ahli suhbatga lozim nimarsalar bayoni”, “Ba’zi atvor va axvol zikri”.

Avvalo jamiyat va undagi odamlar hayoti, turmush tarzi bularning barchasi tarbiyaga bog‘liq bo‘lib, inson tarbiyani atrofdagilardan va eng asosiy qismini maktabdan oladi. Bugungi kunda maktabga bormaydigan bolalar dunyo miqyosida juda ozchilikni tashkil etadi, shuning uchun ham ertangi kelajagimiz bugungi pedagogikamizning beradigan mahsuliga bog‘liq bog‘liq. Pedagogika tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Xususan, Sharq uyg‘onish davridagi pedagogik qarashlardan quyida bir nechtasi bilan tanishib chiqishimiz mumkin. Abu Nasr Farobiy irinchilardan bo‘lib ta’lim va tarbiyaga ta’rif bergan olimdir: Ta’lim – so‘z va o‘rganish bilan amalaga oshiriladi, tarbiya- esa amaliyot, ishtajriba bilan amalgalama oshiriladi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham juda dolzarb va ahamiyatli:

- O‘quvchilarni zeriktirmaslik.
- Bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik.
- Uzviylik va izchillik.

- Yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazma;li bayon qilish va hokozolarga e’tibor berish kerak ekanligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Mahmud Qoshg‘ariyning juda ko‘plab ma’lumotlarni o‘zida amlagan “Devoni lug‘atit turk” asarida pedagogik qarashlar maqollar asosida berilgan:

- “Odamning olasi ichida- yilqiniki tashqida”.
- “Ho‘kizning ortin oyog‘i bo‘lguncha buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq”.
- “Tirishqoqning labi yog‘liq, erinchoqning boshi oblik”.
- “Ko‘kka suzsa yuzga tushun”.

Bundan tashqari Mahmud Qoshg‘ariyning “Odob as-solihiyn” asari kundalik turmush tarzimizda har kuni har daqiqada bilish zarur bo‘lgan turmush odobiga oid xulq-odob qoidalarining majmuidir. Asar turkiy tilda yozilgan bo‘lib, amuqaddima, asosiy bob va xotimadan iborat. Asarning muqaddimasida maqsadi sifatida insonga yaxshi xulq egallashi zarurligi ta’kidlanadi va u “inson odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan odobli va toza bo‘lmasa, nafaqat o‘ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi”, deydi va quyidagicha masnaviyni keltiradi: Adabsiz na o‘zi uchun yomonlik qiladi, Balki butun dunyoga o‘t qo‘yadi. “Osob as-solihiyn” asarida bayon tilgan botiniy va zohiriylar qoidalari:

1. Salomlashish va ruxsat so‘rash odobi.
2. Muloqot odobi.
3. Uxlash va yo‘l yurish odobi.
4. Suhbatlashish odobi.
5. Tozalik qoidalari.
6. Mehmon kutish odobi.
7. Ziyofat va ovqatlanish odobi.
8. Safar qoidalari.

Asarning uchinchi bobи bevosta pedagogika bilan bog‘liq bo‘lib bu bob “Ahli Suhbatning odobi va sharoiti bayonida” deb nomlanadi, va quyidagi fasllardan iborat:

1-“Mashoyixi tariqat qoddasa-l-lohu ta’ala arvahahum suhbatlarining odob zohirlari bayoni”.

2-“Odob ma’naviy bayoni”.

3-“Ahli suhbatga lozim nimarsalar bayoni”.

4-“Ba’zi Atvor va axvol zikri”.

Mazkur bobda pir va murshid odoblariga alohida e’tibor qaratilganligi asardagi eng ko‘p qoida yoritilgan bob ekanligidan ham anglash mumkin. “Mashoixi tariqat qoddasa-l-lohu taolo arvahahum suhbatlarining odob zohirlari bayoni “ faslida ham murid shayxning suhbatida o‘zini qanday tutishi kerakligi shayxga xizmatida amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar keltirilgan. “Yo‘l yurmoqning odoblari” faslining “Uyidin bir ishga yuzlanib chiqorda bu duoni o‘qig‘ay : “Bismillahi tavakkaltu alalloh va la havla va la quvvata illa billah” - qoidasi Abu Hurayradan rivoyat qilingan hadisda quyidagicha keltiriladi: “Nabiy (s.a.v.) uylaridan chiqayotganlarida: “Bismillah, Allohning o‘ziga tavakkul qildim, Allohdan boshqada kuch va quvvat yo‘q”, – der edilar”. Yo‘lda yurganda: – “Ikki oyog‘iga kavsh kiygay yo ikkalasi yalang bo‘lg‘ay, be uzr bir kavsh, bir mahsi yo bir muza birla yurmagayki, bu hislatlar makruhdur” qoidasi Abu Hurayra (r.a.)ning birortangiz bir poy oyoq kiyimda yurmang, ikkalasini kiying yo ikkalasini yechib yuring mazmunidagi hadisda ifodalangan. “Sunan Termizi”ning sharhi Tuhfatul Ahfaziyya Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda “Nabiy (s.a.v.)ning ba’zan bir poy oyoq kiyimda yurganlar”, deyilgan. Mazkur hadisning sharhida aytishchicha, bu hadisdagi holat zarurat yuzasidan yoki payg‘ambarning qaytariqlari xarom darajasida emasligiga ishoratdir” deyiladi. “Ahli suhbatga lozim nimarsalar bayoni” faslidagi “Majlisda ikki kishini o‘rtasig‘a berizo borib o‘lturmag‘ay”- qoida Abdulloh ibn r dan rivoyat qilingan: “Nabiy s.a.v.: “Hech kimga ikki kishining orasini ajratish halol emas. llo, ikkisining izni ila”, - dedilar” mazmunidagi hadis asosida belgilangan. Majlisda kimdir aksirsa “Atsadan so‘ng hamd etgayki “Alhamdulillahi Robbil A’lamiyn” deb. Afzal uldurki “Alhamdulillahi ala kuli hal ” degay”. Va “Atsani hamdini eshitguchi kishi “yarhamukumulloh” yoki “yarhamukalloh” degay” qoidasi Imom Buxoriy rivoyat

qilgan hadisga muvofiqdir. Unda aytlishicha: “Kim aksa ursa, “Alhamdulillahi Robbil olamin”, desin. Buni eshitganlar “Yarhamukalloh” desinlar. Aksa urgan kishi buning javobiga “Yag‘firullohuli va lakum (Alloh meni ham, sizlarni ham mag‘firat qilsin)” deyilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari matnida odoblarni bayon etishda Hoja Ahrorning so‘zлari keltirilganligi, “Mashoyixii tariqat suhbatlarining odobi zohirlar bayoni” bobidagi odoblarini aynan naqshbandiylik tariqati doirasidagi axloq-odob qoidalardir. Asarda oilaning mustahkamligini ta’minlashda er va xotinning bir-birini tushunib, hamjihatlikda ish ko‘rishiga bog‘liqligi aniq bayon etilgan. Oilaning ravnaqi, tinch totuv bo‘lishida erkak kishining mas’uliyati, odobi haqida alohida to‘xtalingan, shu bilan bir qatorda xotin kishining axloqiga ham e’tibor berilgan. Qoshg‘ariyning axloqshunoslikka oid asari Sharq, xususan, musulmon dunyosida o‘chmas iz qoldirgan. Qoshg‘ariy asarlarida o‘z aksini topgan axloqqa oid fikrdan zamonaviy axloqshunoslik nazariyasi asoslarini yanada mustahkamlashda samarali foydalanish, bugungi kunda mamlakatimizda har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning pirovard maqsadga to‘liq mos keladi. Zero, qadimdan dolzarb hisoblangan komil insonni tarbiyalash masalasi Qoshg‘ariy ijodida muhim o‘rin egallagan. Alloma komillikka erishish yo‘llarini inson ongi va aqli yordamida egallab bo‘ladigan bilimlar tizimi sifatida talqin etdi. “Odob as-solihin”da aks etgan axloq-odobga oid qoidalari bugungi kunda ham muhimdir. Chunonchi, axloq inson ma’naviyatining eng qadimiy elementlaridan biridir. Axloq, axloqiy normalarning paydo bo‘lishi asta sekin shakllanib, taraqqiy etishi insonda insoniylikning shakllanishi uchun zamin yaratadi. Aloida olingan kishi faoliyatini, jamiyat manfaatlarini tan olishga, unga bo‘ysindirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan axloq ijtimoiy munosabatlarida nisbiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Hozirda ham mavjud axloqiy normalarning o‘zlashtirilishi inson ijtimoiylashuvining muhim belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonov M.Ijtimoiy pedagogika.-Toshkent, 2003, 41-b.
2. Xodjayev B.X. Umumiyy pedagogika nazaryasi va amalyoti. Toshkent, 2017.

3. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVIXVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. *Scientific progress* 1(6).
4. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //*Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
5. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //*Science and Education*. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.
6. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //*Science and Education*. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.
7. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //*Science and Education*. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>
8. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //*Science and Education*. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.
9. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO 'NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //*Nova. Pub.* – 2022. – C. 1-128.
10. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //*Science and Education*. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.
11. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //*Science and Education*. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.
12. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //*Академические исследования в современной науке*. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 92-94.
13. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //*Telematique*. – 2022. – C. 7128-7131.
14. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.
15. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //*International Journal of Human Computing Studies*. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.